

## RADDIYA

### **“Toshkent davlat arxitektura-qurilish universitetidagi korrupsiya holatlari” nomli maqolaga nisbatan**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-416-son qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruva mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son va “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori, 2017-yil 21-noyabrdagi “Oliy ta’lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 930-son qarori, shuningdek, boshqa amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda Toshkent arxitektura-qurilish universiteti O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari orasidagi milliy reytingda munosib o‘rin egallab, arxitektura va qurilish yo‘nalishlarida malakali mutaxassislar tayyorlash borasida mamlakatimizning eng yetakchi universitet hisoblanadi. Universitet ayni paytda respublika milliy reytingida 11-o‘rinda turibdi.

Shu bilan bir qatorda, universitet rahbariyati tomonidan so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish orqali xalqaro standartlarga mos ravishda yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, universitet dunyoning nufuzli universitetlari reytingida (TOP-1000) o‘z o‘rnini egallah uchun faol sa'y-harakatlarni olib bormoqda. Shu maqsadda, universitetda mavjud bo‘lgan asosiy ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini xalqaro standartlar asosida akkreditatsiyadan o‘tkazish uchun zarur tashkiliy-huquqiy choralar ko‘rilmoxda. Ushbu jarayonga xalqaro ekspertlar va yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari bilan faol hamkorlik o‘rnatilgan holda tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Toshkent arxitektura-qurilish universitetida hozirgi kunda sirtqi ta’lim shaklida jami 3200 nafardan ortiq talabalar tahsil olib kelmoqda. Universitet tomonidan mavjud ichki imkoniyatlar va ta’lim resurslaridan kelib chiqqan holda, sirtqi ta’lim yo‘nalishlari talabalarini uchun o‘quv jarayonlari bosqichma-bosqich va belgilangan jadval asosida tashkil etilgan. Jumladan, 2024-2025 o‘quv yilining bahorgi semestrida 1-kurs talabalarining o‘quv mashg‘ulotlari 2025-yil 28-apreldan 24-maygacha, 2-kurs talabalari uchun 2025-yil 14-apreldan 10-maygacha, 3 va 4-

kurs talabalari uchun 2025-yil 26-maydan 21-iyungacha hamda 5-kurs talabalari uchun 2025-yil 31-martdan 26-aprelgacha bo‘lgan davrlarda tashkil etilgan.

Universitetda ta’lim jarayonlarini yanada samarali tashkil etish maqsadida, fanlarning xususiyatidan kelib chiqib, sirtqi ta’lim shaklidagi talabalar uchun auditoriya mashg‘ulotlari kuniga 8 soatdan 20 soatgacha belgilangan bo‘lib, bunda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va oliy ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga to‘liq amal qilinmoqda.

Shuningdek, universitet tomonidan sirtqi ta’lim shaklidagi barcha talabalarga universitet ichki tartib-intizom qoidalari, ta’lim olish va bilimlarni baholash jarayonlarida qo‘llanilayotgan kredit-modul tizimining mohiyati, tartibi va talablari yuzasidan bat afsil tushuntirishlar muntazam ravishda berib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtgacha universitet rahbariyatiga talabalar tomonidan auditoriya mashg‘ulotlariga belgilangan vaqtdan 5 daqiqa yoki undan ortiq muddat kech qolganligi sababli darsdan chiqarilganlik yuzasidan hech qanday murojaat yoki shikoyat kelib tushmaganligini alohida qayd etib o‘tish zarur.

Shuni ta’kidlash joizki, universitetda talabalar davomati yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom"ning 41-bandiga muvofiq, o‘quv rejasi asosida bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini yoki undan ortig‘ini sababsiz qoldirgan talaba mazkur fandan chetlashtirilishi, yakuniy nazoratga kiritilmasligi va tegishli fan bo‘yicha kreditlarni o‘zlashtirmagan hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

Shu nuqtayi nazaridan, auditoriya mashg‘ulotlari umumiy hajmi 8 soatni tashkil qiluvchi fan bo‘yicha talaba 2 marta auditoriya mashg‘ulotiga sababsiz qatnashmagan taqdirda, avtomatik ravishda mazkur fandan akademik qarzdor sifatida ro‘yxatga olinadi va belgilangan tartibda unga nisbatan tegishli choratadbirlar amalgalash oshiriladi. Ushbu tartib universitetda o‘quv jarayonlari sifatini ta’minalash, talabalar tomonidan ta’lim jarayoniga nisbatan mas’uliyatni oshirish hamda amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga qat’iy rioxat etishni ta’minalashga qaratilgan.

Universitetda ta’lim sifatini ta’minalash va shaffoflikni oshirish maqsadida, barcha fanlar bo‘yicha yakuniy nazorat savollari fan sillabuslarida belgilangan tartib va shakllarda ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu savollar mustaqil ta’lim mavzularini to‘liq qamrab olgan holda tuzilgan va kafedralar tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqilib, tegishli kafedra mudirlari tomonidan tasdiqlanishi yo‘lga qo‘yilgan. Yakuniy nazoratlarni o‘tkazishda xolislik va shaffoflikni ta’minalash uchun auditoriya dars mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchilar jalb etiladi.

Talabalar tomonidan yakuniy nazorat natijalaridan norozilik bildirilib, universitet rahbariyatiga yo‘llangan apellyatsiya arizalari belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqilib, har bir holat bo‘yicha universitet rektorining tegishli buyrug‘i asosida apellyatsiya komissiyasi tuzilgan. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaatlarni ko‘rib chiqish qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etilgan.

Universitetda sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'quv rejalarida belgilangan malakaviy amaliyotlarning barcha turlariga (tanishuv, o'quv, ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlari) universitet rektorining tegishli buyruqlari bilan yuborilgan. Shu bilan birga, tegishli ta'lim yo'nalishiga mos keluvchi korxonalarda ishlayotgan talabalar, mavjud ish joylarida amaliyot o'tashlari uchun tegishli buyruqlar asosida rasman ruxsat berilgan.

Bundan tashqari, universitetda ta'lim sifatini oshirish va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish maqsadida, yirik ish beruvchi korxonalar bilan kelishilgan holda mutaxassislik fanlarini o'quv rejasiga kiritishda kurs ishi yoki kurs loyihalari ham rejalashtirilgan va talabalar tomonidan ushbu vazifalar belgilangan tartibda bajarilmoqda.

Universitetda korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish hamda talaba-yoshlar o'rtasida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish bo'yicha doimiy va muntazam ravishda targ'ibot-tashviqot tadbirlari olib borilmoqda. Xususan, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga oid masalalar yuzasidan murojaat qilish uchun barcha talaba va xodimlarga universitetning rasmiy veb-sayti orqali (<https://taqu.uz/hurmatli-talabalar-professor-oqituvchilar-va-universitet-xodimlari>), maxsus rasmiy telegram kanali ([https://t.me/taqu\\_corruption\\_bot](https://t.me/taqu_corruption_bot)), "TAQU korrupsiya va komplaens" telegram guruhi ([https://t.me/+kkt\\_8-JQbmkyOWYy](https://t.me/+kkt_8-JQbmkyOWYy)) va ishonch telefoni (55) 508-03-14) orqali murojaat qilish imkoniyatlari yaratilgan.

Shuningdek, universitetda ta'lim jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, auditoriya mashg'ulotlari va boshqa faoliyatlarni nazorat qilish maqsadida o'quv binolari va auditoriyalar videokuzatuv kameralar bilan jihozlangan.

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rahbariyati korrupsiya holatlariga nisbatan doimiy ravishda prinsipial va murosasiz munosabatni namoyon etib kelmoqda. Universitetda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga oid holatlarni aniqlash, bartaraf etish hamda kelgusida ularning oldini olish bo'yicha qat'iy choralar amalgalash oshirilmoqda.

Shuningdek Toshkent arxitektura-qurilish universitetida Siddiqov Adham ismli shaxs professor-o'qituvchi sifatida faoliyat olib bormasligini ma'lum qilamiz.

Shu bilan birga, "Eltuz" telegram kanalida (<https://t.me/eltuz2022/35628>) "Toshkent davlat arxitektura-qurilish universitetidagi korrupsiya holatlari" nomi ostida e'lon qilingan maqoladagi iddaolar universitet tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, maqolada qayd etilgan holatlar o'z tasdig'ini topmagan. Ushbu holatlar bo'yicha daliliy asoslar mavjud emasligi hamda e'lon qilingan mazkur maqola universitetning ishchanlik obro'si va nufuziga putur yetkazuvchi, haqiqatga zid axborot hisoblanishini inobatga olib, ushbu ma'lumotlarni anonim va ishonchsz deb hisoblash hamda kanal ma'muriyatidan maqolani olib tashlash talab etiladi.

Mazkur talab O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishga oid normalariga asoslanadi. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, kanal ma'muriyati tomonidan universitet sha'ni va qadr-qimmati, shuningdek, ishchanlik

obro'siga yetkazilayotgan zararlarning oldini olish maqsadida tegishli choralarni ko'rish so'raladi.

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**

**Matbuot kotibi**



**M.Niyazova**